

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG IJODIDA FUTBOLGA NAZAR**

MADAMINOVA MOHINABONU MA'RUFJON QIZI

O'zDJTU 3-fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Aleksandr Arkadyevich Faynbergning hayoti va ijodi, uning she'riyatidagi asosiy mavzular va badiiy uslubi tahlil qilinadi. Shoirning futbol, inson jasorati va fojialar haqidagi she'rlari, ayniqsa, "Paxtakor-79" fojiasi bilan bog'liq mashhur asari keng yoritiladi. Maqolada Faynbergning poetik ifoda vositalari, metaforalar va semantik tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, uning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissassi va tarjima faoliyati haqida ham ma'lumot berildi.

KALIT SO'ZLAR: futbol, paxtakor, tarjimon, she'riyat, filmlar, semantik tahlil, barmoq vazni,

KIRISH

Adabiyot tarixida inson qalbining eng nozik va chuqur kechinmalarini ifodalagan shoirlar orasida Aleksandr Arkadyevich Faynberg alohida o'rin egallaydi. U o'z ijodida insoniy tuyg'ular, hayot falsafasi, sevgi, yo'qotish va umid mavzularini yuksak poetik mahorat bilan tasvirlagan. Faynbergning she'rlari nafaqat badiiy go'zalligi, balki ulardagi chuqur ma'no va falsafiy fikrlari bilan ham o'quvchini o'ziga jalb etadi.

Faynberg ijodida futbol, sport ruhi va insoniy jasorat kabi mavzular alohida o'rin tutadi. Uning she'rlari orasida "Paxtakor-79" futbol jamoasiga bag'ishlangan mashhur she'ri bor bo'lib, bu asar nafaqat sportga bo'lgan hurmatni, balki inson taqdiri va hayotning kutilmagan burilishlarini chuqur his etish imkonini beradi. Ushbu she'r nafaqat fojia xotirasi sifatida, balki odamlar xotirasida abadiy qoladigan insoniy jasorat va birlik ramzi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faynberg ijodida adabiy metaforalar, ta'sirli obrazlar va hissiyotlarning tiniqligi asosiy o'rin egallaydi. U har bir misrasi orqali hayot haqiqatlarini ochib beradi, oddiy voqealarga chuqur falsafiy yondashadi. Shoirning badiiy uslubi, hayot va o'lim haqidagi qarashlari, sport va inson ruhiyati bilan bog'liq tasvirlari uning she'riyatini yanada yuksak darajaga olib chiqadi.

Aleksandr Faynberg nafaqat shoir va tarjimon, balki o'zining adabiy salohiyatini kino sohasiga ham yo'naltirgan ijodkorlardan biri bo'lib, uning yozgan ssenariylari o'zbek va rus kino san'atida o'ziga xos o'rin tutadi. Uning kino uchun yozgan asarlari faqatgina badiiy estetik jihatdan emas, balki chuqur ma'naviy va falsafiy mazmun bilan ham boyitilgan. U o'zining poetik tafakkuri va so'z ustasi sifatidagi mahoratini kinematografik tilga o'girishga muvaffaq bo'lib, o'zbek kinosi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Faynberg o'z ijodida inson hayotining turli qirralarini, jamiyat muammolarini va ruhiy kechinmalarni tasvirlashga katta e'tibor qaratgan. Uning ssenariylari orqali ishlangan filmlar tomoshabinga chuqur ma'no va falsafiy xulosalar taqdim etadi. Bu jihatdan u o'z davrining eng ilg'or ssenaristlaridan biri sifatida kinematografiya tarixida o'z izini



qoldirdi. Ayniqsa, uning kinematografiyadagi ishi o'zbek madaniyati va san'atining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Faynbergning ssenariylari asosida yaratilgan filmlar o'zbek kinosining badiiy va dramatik qirralarini kengaytirgan, milliy qadriyatlar va zamonaviy voqelikni o'zida mujassam etgan. U o'z asarlarida inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib berishga intilgan, shu bilan birga, hayotiy va samimiy obrazlar yaratishga harakat qilgan.

Shuningdek, Faynbergning kino sohasidagi ijodi faqatgina badiiy filmlar bilan cheklanmaydi. U animatsiya janrida ham faoliyat yuritib, bolalar va kattalar uchun mazmunli ssenariylar yaratgan. Bu esa uning ijodiy qamrovining kengligini va kino san'atining turli yo'nalishlarida o'z izini qoldirganini ko'rsatadi. Uning ssenariylari chuqur mazmun va hissiy boylikka ega bo'lib, ular kino tilida yangi uslublarni kashf etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Faynbergning ijodi faqatgina milliy miqyosda emas, balki xalqaro doirada ham qadrlanadi. Uning yozgan ssenariylari asosida ishlangan filmlar bir qator xalqaro kinofestivallarda e'tirof etilgan va mukofotlarga sazovor bo'lgan. Bu esa uning kino san'atiga qo'shgan hissasining nafaqat o'zbek madaniyatiga, balki butun jahon kinematografiyasiga ham ta'sir qilganidan dalolat beradi. Aleksandr Faynbergning kinematografiyadagi o'rni haqida gapirganda, uning ssenariynavis sifatidagi uslubi, ijodiy falsafasi va kinoga bo'lgan o'ziga xos yondashuvi alohida e'tiborga loyiq. U o'z asarlarida insoniyatning eng nozik hissiyotlarini, hayotning quvonch va fojiaiy tomonlarini betakror ifoda eta olgan. Uning ssenariylari asosida yaratilgan filmlar nafaqat o'zbek tomoshabinlari, balki keng xalqaro auditoriya tomonidan ham iliq kutib olingan.

TAHLIL VA METODLAR

Aleksandr Arkadevich Faynberg (1946-yil 30-iyulda tug'ilgan) — rus shoiri, tarjimon va ssenarist bo'lib, O'zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo'lgan. Uning ijodi o'zining serqirraligi va chuqur mazmuni bilan ajralib turadi.

Faynbergning she'rlari Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburg kabi shaharlarda chop etilgan. Uning asarlari mahalliy "Smena", "Yoshlik", "Yangi Dunyo", "Sharq Yulduzi", "Yangi Volga" jurnallarida, shuningdek, sobiq Ittifoq, Kanada va Isroilning davriy nashrlarida nashr etilgan. Shoirning lirik qahramoni tarixiy-ijtimoiy silsilalar asrida o'zining insoniy mohiyatini to'la saqlab qolgan, o'zgaga mehr-shafqat va madad qo'lini uzatishga tayyor, yer kurrasida sodir bo'layotgan noxush voqea va hodisalardan iztirob chekuvchi insondir. Faynbergning she'riy ijodida o'tmish bilan hozirgi kun, G'arb bilan Sharq milliyligi va baynalmilalchiligi o'zaro tutashib, o'ziga xos badiiy olamni vujudga keltiradi. Faynberg Alisher Navoiy va boshqa zamonaviy o'zbek shoirlarining she'rlarini rus tiliga tarjima qilgan. Shuningdek, u "Ko'm-ko'k osmon ostida", "Qaynoq quyosh ostidagi uy", "Qandahorda kuyganlar" kabi yirik filmlar uchun yettita ssenariy yozgan, shuningdek, 18 ta animatsion filmlar ssenariysi muallifi. Faynbergning ijodi o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan bo'lib, u o'zining serqirra faoliyati orqali adabiyot va san'at sohasida muhim o'rin egallaydi.

Aleksandr Faynberg she'rlari orasida uning futbolga ishqibozligini bilib olishimiz mumkin. U fojiaga uchragan "Paxtakor" jamoasi uchun nafaqat she'r bitgan balki ularning xotirasiga bag'ishlangan "Ularning to'p maydoni osmonda" nomli kinofilmga ham



ssenariy mualliflik qilgan. Bu she'r 1979-yilda "Paxtakor" futbol jamoasi fojiasi xotirasiga bag'ishlangan. She'rni tahlil qilish uchun uning semantik (mazmuniy) va barmoq (sillabik) vaznini chuqur tahlil qilamiz.

SEMANTIK TAHLIL (MAZMUNYIY TAHLIL)

She'rda fojiali voqea – "Paxtakor-79" jamoasining Minsk shahriga uchib ketayotgan paytda samolyot halokatiga uchragani tasvirlangan. U besh qismga ajraladi:

Birinchi qism (1-4-qatorlar): Futbol tasviri

Chimzorda o'ynaydi-o'ynaydi shamol,

To'p uchar, to'p uchar bamisli xayol.

Naqadar zo'r zarba darvoza tomon,

Hayotni gol bilan yutadi futbol.

Bu qismda futbol poetik shaklda tasvirlanadi. Shamol va to'pning harakati orqali futbol maydonidagi dinamik harakatlar tasvirlangan. "Hayotni gol bilan yutadi futbol" misrasi futbolni hayotga o'xshatish bilan metafora hosil qiladi.

Ikkinchi qism (5-8-qatorlar): Yosh futbolchining umidlari

To'r titrar, guvillar seldek olomon,

Yoshgina hujumchi yugurar shodon.

Uning-chun ochiqdir endi sharq-u g'arb,

Ochiqdir janub-u shimol begumon.

Bu qismda yosh futbolchini*ng kelajagi tasvirlanadi. To'r titrashi – gol urilganini bildirsa, olomon guvillashi – g'alaba quvonchining ifodasi. "Sharq-u g'arb, janub-u shimol" so'zlari esa karyera imkoniyatlari cheksiz ekanini ko'rsatadi.

Uchinchi qism (9-12-qatorlar): Samolyot uchishi va fojiga ishora

Agarda bilmasang oldda nelar bor,

Ishongin, noumid bo'lmagin zinhor.

Shunchaki Minskka uchar samolyot,

Sen uni kuzatib qo'ygin intizor.

Bu qismda hayot noaniqligi haqida gap ketadi. "Agarda bilmasang oldda nelar bor" misrasi yashirin fojiyaga ishora qiladi. Samolyot Minskka uchyapti, ammo hech kim u qaytib kelmasligini bilmaydi.

To'rtinchi qism (13-16-qatorlar): Kim asl chempion?

Oramizda kim u asli chempion?

Balki men, balki u, qismatga ayon.

Parvoz maydonida intiq kuzatib,

Xayrlashib qolar pastda stadion

Bu qismda hayot va taqdir haqida falsafiy fikr berilgan. "Kim chempion?" degan savol futbol yutug'ini emas, haqiqiy chempion – hayot bilan kurashgan odam ekanini anglatadi.

Beshinchi qism (17-20-qatorlar): Samolyot fojiasi va yagona chempionlik

Biz uchdik, biz uchdik ko'm-ko'k osmonda,

Muzaffar bo'lgaymiz o'zga maydonda.

Kim avval, kim keyin tug'ildik, ammo



+УЎ4+АД+Н+2++ +Chempion bo'lgaymiz birlashgan onda.

Bu qismda futbolchilarning samoga ko'tarilishi real voqea sifatida tasvirlanadi. "Ko'm-ko'k osmonda uchish" samolyot fojiga uchrashini nazarda tutadi. Ularning hayoti fojiali tugagan bo'lsa-da, ular "o'zga maydonda" – ya'ni abadiy xotirada g'olib bo'lishadi. Oxirgi qator "birlashgan onda" degan jumlasini ularning fojida birga halok bo'lishganini bildiradi.

BARMOQ VAZNI TAHLILI

Barmoq vazni – har bir misradagi bo'g'inlar soni va ularning muayyan tartibda joylashishidir. Ushbu she'r 11 bo'g'inli barmoq vaznida yozilgan:

1. Chim-zor-da o'y-nay-di-o'y-nay-di sha-mol (11 bo'g'in)
2. To'p u-char, to'p u-char ba-mis-li xa-yol (11 bo'g'in)
3. Na-qa-dar zo'r zar-ba dar-vo-za to-mon (11 bo'g'in)
4. Ha-yot-ni gol bi-lan yu-ta-di fut-bol (11 bo'g'in)

Vazn: 6+5=11 bo'g'inli vaznda o'zbek tiliga tarjima qilingan

Ushbu barmoq tizimi she'rga tezkor, ritmik ohang beradi, ayniqsa, futbol va samolyot harakatini tasvirlash uchun juda mos keladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, she'rning tuzilishi va semantik ma'nosi futbol jamoasining hayoti va halokati o'rtasidagi keskin kontrastni ochib beradi. She'r futbol maydonidagi harakat va jo'shqinlik tasviridan boshlanadi. Shamolning chimzorda esishi, to'pning xayol singari uchishi tezlik va energiyani ifodalaydi. Shu bilan birga, "hayotni gol bilan yutadi futbol" degan satr futboldagi yutuqni hayotdagi g'alaba bilan taqqoslaydi, lekin bu g'alabani abadiy emasligi haqidagi ishora ham bor.

Keyingi qismda yosh futbolchining kelajakka bo'lgan umidlari tasvirlanadi. U uchun sharq va g'arb, janub va shimol ochiq – ya'ni, uning oldida cheksiz imkoniyatlar bor. Bu futbolning global sport ekanini, yosh futbolchilarga cheksiz imkoniyatlar taqdim etishini ifoda etadi. Biroq, bu umid va quvonch orqasida yashirin fojia yotibdi: futbolchilar o'z oldilarida qanday taqdir turganini hali bilishmaydi. She'rning eng dramatik nuqtalaridan biri – samolyot uchishi haqida gap boradigan qism. "Shunchaki Minskka uchar samolyot" degan jumla oddiy bir uchish sifatida tasvirlansa ham, keyingi kontekstdan kelib chiqib, bu parvozning fojiali yakun topishini tushunamiz. "Sen uni kuzatib qo'ygin intizor" misrasi ortida esa umid va noaniqlik bor: kuzatuvchilar orqada qoladi, lekin futbolchilar bu safardan qaytib kelmaydi.

She'rning eng kuchli va falsafiy qismi esa so'nggi bandlarda joylashgan. "Oramizda kim u asli chempion?" degan savol nafaqat sport jihatidan, balki hayot va o'lim o'rtasidagi kurash nuqtai nazaridan ham o'ylantiruvchi savol bo'lib chiqadi. Haqiqiy chempion – hayot bilan kurashgan, orzulari yo'lida jon bergan insondir. She'rning yakuni osmon metaforasi bilan beriladi. Futbolchilar samolyotda osmonga ko'tarilgan, ammo bu ko'tarilish oddiy parvoz emas, ularning oxirgi safaridir. "Biz uchdik, biz uchdik ko'm-ko'k osmonda" – bu yerda samolyot halokati va futbolchilarning bu dunyoni tark etishi birga tasvirlanadi. Lekin so'nggi satr umid va birlik



g'oyasini beradi: "Chempion bo'lgaymiz birlashgan onda." Bu shuni anglatadiki, futbolchilar hayotlarini yo'qotgan bo'lishlari mumkin, ammo ular tarixda va yuraklarda abadiy chempion sifatida qoladilar.

Bu she'r nafaqat futbol jamoasining fojiali qismatini yodga soladi, balki har qanday inson hayoti qanchalik noaniq va oldindan aytib bo'lmashligini ham chuqur anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG HAYOTI VA FAOLIYATI: Rashidova A. , Umurzakova A. U. ; "Journal of science-innovative research in Uzbekistan" jurnali Vol. 2 No. 3 – 2024. March – 182-185-sahifalar

<https://universalpublishings.com/~niverta1/index.php/jsiru/article/view/4802>

2. Adabiyot nazariyasi asoslari : D. Quronov. – Toshkent: "Noshir" nashriyoti, 2019. - 239-247-sahifalar

3. O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI. Qoralamaga qasida – Toshkent "Adabiyot" - 2021- 46-sahifa

4. ALEKSANDR FAYNBERGNING IJODI HAMDA "VATAN" SHE'RINING TAHLILI : Axtamova A. ; " Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar" jurnali Vol. 2 No. 1 – 2025 – 334-336-sahifalar

<https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/1054>

5. ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG HAYOTI VA IJODI <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/43313>

7. Aleksandr Faynberg (1939-2009) - Ziyouz https://n.ziyouz.com/index.php?Itemid=130&catid=74&id=2519%3Aaleksandr-faynberg-1939-2009&option=com_content&view=article

8. ALEKSANDR FAYNBERG – BUYUK NAMOYONDA: Umarova Dilshoda Hamro qizi , Лучшие интеллектуальные исследования – vol. 17 No. 4 (2024) – 129-130-sahifalar

<https://web-journal.ru/journal/article/view/3981>

9. Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi – UzSWLU

<https://www.uzswlu.uz/aleksandr-faynberg-hayoti-va-ijodi>